

МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



Илимий-методикалық журнал

2024

3/1-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

3/1-сан 2024

март

Шөлкемлестириүшилдер:

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендіриү Министрлигі,
ФЗПИИ Қарақалпақстан филиалы**

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ
Сапардурды АБАЕВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ
Хайрула АЛЯМИНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ
Интизар АБДИРИМОВА
Тұлқин АЛЛАЁРОВ
Мариғжон АХМЕДОВ
Умида БАХАДИРОВА
Фарҳад БАБАШЕВ
Ботир БОЙМЕТОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Шахло БОТИРОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Аскар ДЖУМАШЕВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шымкент,
Қазақстан)
Алишер ЖУМАНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Холбай ИБРАГИМОВ
Шохида ИСТАМОВА
Умида ИБРАГИМОВА
Лола ИСРОИЛОВА
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз,
Қазақстан)
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шымкент,
Қазақстан)
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Аскарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Захия НАРИМБЕТОВА

Хұшбоқ НОРБҮТАЕВ
Улфат МАҲКАМОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Сафо МАТЧОН
Шукурилло МАРДОНОВ
Камаладин МАТЯКУБОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Раъно ОРИПОВА
Бахтиёр РАХИМОВ
Фурқат РАЖАБОВ
Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Дилшода САПАРБАЕВА
Феруза САПАЕВА
Зайниддин САНАҚУЛОВ
Қаххор ТУРСУНОВ
Амина ТЕМИРБЕКОВА
Нурзода ТОШЕВА
Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Воҳид КАРАЕВ
Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
Гавхар ЭШЧАНОВА
Қонысбай ЮСУПОВ



Орлова Т.А. Иммерсивные технологии - как средство развивающего аспекта в обучении астрономии студентов педагогических вузов	329
Mamatoxunov Yo.A. Integration of modern technologies into the educational process: analysing the impact on learning outcomes in physics	336

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Iksasov I. Baslawish klasslarda lингвистикалық компетенсијага тиікка郎ған қатнашлардың қалыптастырылған компетенсијаның мазмун һам мәнисі	342
Kurvalieva T.L. Maktabgacha yoshdagи bolalarda emotсional zo'riqishning kelib chiqish sabablarini va uning yechimlari	346
Narimbayeva L.K. Zamонави mакtabgacha ta'lіm tashkilotini boshqarish	350
Shanasirova Z.Y. Maktabgacha ta'lіm tashkilotlарining boshqaruv jarayonini takomillashtirishda pedagogik mahорат ko'nikmalarini rivojlantirish	355
Nosirova R. X. Steam ta'lіm texnologiyalari, maktabgacha ta'lіmni rivojlantirishning innovatsion yo'nalishi sifatida	359
Abdullayev A.A. Boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya darslарida innovatsion ta'lіm texnologiyalarini qo'llash xususiyatlari	363
O'rзалиева S. T. Maktabgacha ta'lіm tashkiloti tarbiyachisiga qo'yiladigan zamонави pedagogik va kasbiy talablar	366
Davletmuratova E., Orazbaeva G. O'quvchi yoshlarni vatanparvarlik tuygusunu tarbiyalashda xalq pedagogikasining ahamiyati	370
Azamatova D. Sh. Maktabgacha ta'lіm tashkilotlарida o'yin faoliyatining turlari	374
Maripova N.X. Maktabgacha yoshdagи bolalarning hissiy holatiga o'yinlarning ta'siri	378
Xidoyatova N.A. Ta'lіmni modernizatsiyalash sharoitida maktabgacha ta'lіm tashkilotlari boshqaruv jarayonini takomillashtirish	381
Achilova M. S. Maktabgacha ta'lіm tashkilotlарida boshqaruv jarayonini takomillashtirishning pedagogik asoslar	386
Mutalova D. A. Maktabgacha ta'lіm tashkilotlарida pedagogik kreativlik va kasbiy kompetensiјani shakllantirish	391
Kasimova N. D., Tojidinova Z. O'smir - o'quvchilarini kompyuter o'yinlari vositasi yordamida ta'lіm sifatini oshirishning nazariя va amaliy jihatlari	395
Tursunboyeva M. D. Maktabgacha ta'lіm tashkilotlari bolalarida ma'naviy sifatlarni tarbiyalash	402
Abduraximov D.D. Milliy harakatli o'ynlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ahloqiy tarbiyalash	406
G'anixo'jayev A.Sh. Aqliy va jismoniy salomatlikning bog'liqligi	410
Muratova M.O'. Maktabgacha katta yoshdagи bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakillantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati	413
Babyeva D.R., Ochilova X.Sh. Maktabgacha yoshdagи bolalarning ijtimoiy moslashuvning zaruriyati	418
Ergasheva B.Z. Modernizatsiyalash sharoitida oliy ta'lіm tashkilotlарining bo'lajak tarbiyachilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik muammolar	423
Eshmamatova S.T. Maktabgacha ta'lіm tashkilotlарida tarbiyalanuvchilarda psixologik moslashuvchanlik mexanizmlarini takomillashtirish	426
Buriyeva A.N. Maktabgacha ta'lіm tashkilotlарida maktabgacha yoshdagи bolalar uchun ta'lіmiy o'yinlarning didaktik ta'minotini yaratishga oid turli yondoshuvlar	429
Ilyosboyev S.B. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining uzluksiz pedagogik amaliyotini tashkil etish yo'llari	434
Aybotayeva M.X. Maktabgacha ta'lіmda qo'llaniladigan o'yinlarni tashkil etish yo'llari	438
Eshboyeva D.D. Maktabgacha ta'lіm tashkilotlарida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etish	442
Adilbaeva G.Y. Maktabgacha ta'lіm tashkilotlарida ekologik tarbiya	446
Adilbaeva G.Y. Maktabgacha ta'lіm tashkilotlарida tabiat bilan tanishitirish xilma-xil shakllari	452



МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИ БОЛАЛАРИДА МА'НАВИY СИФАТЛАРНИ ТАРБИYАЛАШ

Tursunboyeva M.D.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasи o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim tizimi, ma'naviy salohiyat, tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat, ilm.

Ключевые слова: система дошкольного образования, духовный потенциал, образование, духовность и просвещение, наука.

Key words: preschool education system, spiritual potential, education, spirituality and enlightenment, science.

Jamiyatning ravnaqi uning o'sib kelayotgan yosh avlodga bo'lgan munosabati va ularga yaratayotgan imkoniyatlarga bog'liq. Har qanday mamlakat sog'lom va barkamol, el - yurtiga sadoqatli, iymon - e'tiqodli farzandlari bilan faxrlanadi, ularga suyanadi. Shunday fazilatlarga ega avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazgan xalq kelajakka katta ishonch bilan qaraydi, istiqboli porloq bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizni 2016 -yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017- yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida eng birinchi dolzarb vazifa bu maktabgacha ta'limni rivojlantirish bo'lmog'i lozim deya ta'kidlab o'tdilar. Ushbu fikrning isboti sifatida mamlakatimizda Maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar yaqqol misol bo'la oladi. Maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etilishi, zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ularning moddiy texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun oliy ma'lumotli mutaxassislarini ustuvor ravishda tayyorlash va joy-joyiga qo'yish kabi muammolarning hal etilayotganligi barchamizni quvontirmoqda. Bu borada mamlakatimizning birinchi Prezidenti I. Karimov aytganlaridek, "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi,



farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zi bo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlanadigan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrılib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin." . Dunyoda sodir bo'layotgan voqealar, inson ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishga intilishlar, xalqaro terrorizmning avj olishi ,albatta, ma'naviy tarbiyaga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi, biroq xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodni ushbu ta'sirlardan himoya qilish bugungi kunda kechiktirib bo'lmas masaladir. Maktabgacha ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biri – bu "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" asosida Respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar yoshlarni o'z xohishi, irodasi va intilishiga qarab, ularga chuqur bilimlar berish, o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlardan to'la xoli bo'lgan yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beradigan raqobatbardosh malakali kadrlar tayyorlashni ta'minlashdir.

Ma'lumki, har qanday ota – ona o'z farzandlarini sevadi – bu isbot talab qilinmaydigan haqiqat. Demak, farzandlarimiz biz uchun aziz, ularning tarbiyasi esa undan-da aziz. Shuning uchun ham ota – onalar farzand tarbiyalash uchun oldin o'z–o'zini tarbiyalab olishi zarur – bu farzand tarbiyasida ota–onaning "ibrat – namuna" bo'la olishi, demakdir. Bu haqda quyidagi fikr bola tarbiyasining nechog'lik ahamiyatli ekanligini dalillaydi: "Bola tarbiyasi uchun davlatni boshqarishdan ko'ra ham teranroq mushohada, undan ham chuqurroq donishmandlik kerak" (U.Chenning).

Mamlakatimizda bu yo'nalishdagi ta'lim – tarbiya ishlariga e'tibor berish davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan. Bu haqda birinchi prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" (1997- yil 29- avgust) nomli ma'rurasida uzlusiz ta'lim tizimining mazkur turiga alohida urg'u berib quyidagi fikrni aytgan edi: "Norasida bolaning ongi nimani o'ziga singdira oladi, nima qabul qila olmaydi? Bolalarimizga qachondan boshlab, qanday usulda va uslubda milliy qadriyatlarimiz, urf – odatlarimizni anglatishimiz kerak?" .

Demak, biz ota – onalarning va MTT murabbiylari hamda tarbiyachilarining tarbiyaviy xatti – harakatlari ham shunga yarasha insonparvar bo'lmos'i lozim.



Buning asosini esa farzandlaringizda shakllantirilishi lozim bo'lgan ma'naviy sifatlar tashkil etadi.

MTT da bolalardagi ma'naviy sifatlarni shakllantirishga keng imkoniyatlar mavjud. Ularni quyidagi ma'naviy sifatlar qamrovida olib borgan ma'qul: atrofdagilarga hurmat bilan munosabatda bo'lish; jonkuyarlik; kamtarlik; odob bilan gaplashish; mehmondo'st; kattalarga sizlab, ismi – sharifini to'liq aytib murojaat qilish; muloyimlik; xushmuomalalik; shirinso'zlik; odoblilik; ziyraklik; jonkuyarlik; dilkashlik; sabrlilik; mas'uliyatlilik; intizomlilik; tashabbuskorlik; xushxulqlik; mustaqillik; mehnatsevarlik; mehribonlik va shu kabilar.

Bu ma'naviy sifatlar bir qarashda bog'cha yoshidagi bolalarga ko'plik yoki og'irlilik qiladiganga o'xshab ko'rindi. Siz bundan cho'chimang! Bularning hammasi bolaning bog'cha ostonasiga kirib kelishi bilan boshlanadigan faoliyat turidir. Faqtgina bunga murabbiy va tarbiyachilar o'zлari ibrat – namuna ko'rsatib, e'tibor berib boradi. Bu borada ular oldida qator vazifalar bor. Biz ularni namuna (andoza) sifatida quyidagicha ifodalashni lozim topdik:

1. tarbiyachilar bolalarga axloq – odobning muhim me'yorlari – salomlashish, yurish – turish, so'zlashish, ovqatlanish, tozalik, ozodalik kabi fazilatlarni izchillik bilan singdirib borishlari shart;
2. bolani kundalik tartibga rioya qilishga o'rgatish;
3. bolaning bog'chada ham jismonan, ham ma'nан o'sib rivojlanishiga sharoit yaratish va bunga doimo g'amxo'rlik qilish;
4. bolani o'zaro hurmat ruhida tarbiyalashning samarali usul yoki uslublaridan foydalanish;
5. bola shaxsini hurmat qilish, ularning ishlari, qiziqishlari, manfaatlari bilan hisoblashish;
6. bolada ma'naviy sifatlarni tarkib toptirishga muntazam ravishda e'tiborda bo'lish;
7. bolalarda turli xil illatlarning paydo bo'lib qolishidan juda ham ehtiyoj bo'lish;
8. bola ongiga umummanfaat bilan hisoblashish zarurligini singdirib borish;
9. bolaning nutqiga va uning ravonligi hamda mazmundorligiga doimo e'tibor berish;
10. bola tarbiyasiga oid didaktik vositalar va materiallarni yetarli qilib to'plab olish hamda ulardan samarali va ijodiy foydalanish;
11. bolada burch va mas'uliyat hissini shakllantirish.

Bu qayd etilgan vazifalar qat'iy emas, balki sizda bundan-da mukammalroq vazifalar tizimi bordir. Bizning umumiylar maqsadimiz farzandlarimizni



ma'naviy yetuk va barkamol qilib tarbiyalashdan iboratdir, chunki ular O'zbekiston kelajagining mustahkam poydevoridir. Shu o'rinda quyidagi fikr maqolamizning ahamiyatini tasdiqlaydi: "Tartib asosida ish qiladigan bola berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida puxta bajarishga, jamoat orasida ham o'zini tutishga va imkon qadar e'tibor qozonishga odatlanib boradi. Bundan tashqari, rejim bolani sog'lom, tetik, baquvvat bo'lib o'sishiga hamda aqliy jihatdan to'g'ri rivojlanishiga katta ta'sir etadi. Bola o'zi sevgan mashg'uloti bilan shug'ullanishga vaqt topa oladi. U hamisha ruhan tetik, ma'lum maqsadga intiluvchan, serzavq, o'z ishidan mamnun bo'ladi".

Demak, biz yuqorida keltirib o'tgan bolaning ma'naviy sifatlari va ularning bola ongida tarkib toptirishdagi murabbiylar yoki tarbiyachilar vazifalari tizimi oila yoki MTT uchungina emas, balki jamiyat va uning ma'naviy rivoji uchun ham ma'naviy "ozuqa"dir. Bunga sabab, bolalarimiz turmushda yoki tevarak – atrofimizda uchraydigan turli xil salbiy yoki ijobiy holatlarni farqlay olishlari kerak, aks holda ular ongida turli xil illatlar ildizlari tomir otib ketishi mumkin. Bu jihatlar dastlab oiladan boshlanadi ya'ni oiladagi tartib – intizomlik, tozalik – ozodalik bola MTTga borganda ham sezilib turadi. Shuning uchun ham oila va MTT hamkorligi o'ta muhimdir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lrim to'g'risida»gi qonuni.
2. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
3. Pedagogika. Munavvarov A.q.ning umumiylarini tahriri ostida. - Toshkent, O'qituvchi, 1993.
4. Ziyomuhamedov B. Ma'rifat asoslari. – Toshkent, Chinor ENK, 1998.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lrim tashkiloti pedagoglarining maktabgacha yoshdagagi bolalarning ma'naviy salohiyatini oshirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatlarni singdirishni o'rgatish mulohazalari tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

В статье анализируются мнения педагогов дошкольных образовательных организаций о повышении духовного потенциала дошкольников, воспитании их в духе патриотизма, обучении привитию национальных ценностей.

SUMMARY

The article analyzes the opinions of teachers of preschool educational organizations on increasing the spiritual potential of preschool children, educating them in the spirit of patriotism, and teaching them to instill national values.